



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, jamiyatga, uning taraqqiyotiga faol xizmat qiluvchi va jamiyat ilmiy taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezonidir, fan taraqqiyotining eng asosiy ko'zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.- М.,1966, с. 474.
2. Олим Усмон, Ренат Дониёров. Русча интернационал сўзлар изоҳли луғати. - Т : Г. 1965.451-б; Д.Э.Розенталь Д.Э., М.А.Теленкова М.А. Словарь справочник лингвистических терминов. -М., 1976. -С.486.
3. Усмон О., Ренат Дониёров. Ўша луғат, 278-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати, М.1981,461-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд. - Т., 2020, 582-б.
4. Ахманова О.С. О'sha lug'at 412-bet. Д.Э.Розенталь Д.Э., Теленкова М.А., О'sha lug'at. 390-б. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд.- Тошкент, 2020. 526-б. А.Ҳожиёв. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент, 1985, 77 -б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати II том. -М., 1981. 171-б; Ўзбек тилининг изоҳли луғати, IV жилд. -Тошкент, 2020, 84-б.
6. Кондаков Д.Э. Логический словарь. - М.: 1971, 475-б., Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I II жилд. -Тошкент, 2020, 526-б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд.- Тошкент, 2020, 84-б.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/URXM6905

TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA

Mirzaqulov Tursunali O'tayevich

filologiya fanlari doktori, professor, Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti

MirzakulovT.U.1948@gmail.com

Annotatsiya: Morfemika birliklari :rasida ham birikishning o'ziga xos qulaylik yaratuvchi, ham cheklovchi omillari mavjud. Har ikki omil- bir umumiy natija yasama so'z tarkibida morfemalarning birikishi qonuniyatlari haqida ma'lumot berishi kerak. Ushbu axborotda ayrim cheklovchi omillar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: til mazlun sathi, lingvopsixologik omillar, morfonologiya, morfotaktika, morfosintaksis, valentlik.

Annotation: Within the framework of morphological units, there are factors that both facilitate and restrict the combination of morphemes. Both types of factors should ultimately provide insights into the regularities of morpheme combination in derived words. This article discusses certain restrictive factors in this regard.

Keywords: language content level, psycholinguistic factors, morphophonology, morphotactics, morphosyntax, valency.

E.A. Zenskaya, I.S. Uluxanov morfemalar birikishi qonuniyatlari :rasidagi cheklovchi omillarini quyidagicha ko'rsatadilar: 1) semantik; 2) formal; 3) stilistik; 4) leksik; 5) so'z yasalishiga xos cheklashlar (1,323). Keyinchalik E.A. Zenskaya yuqoridagi omillarni qayta guruhlarga ajratadi: semantik, formal hamda so'z yasalishi bilan bog'liq cheklash tilning sistem tabiatdan, stilistik va leksik cheklash esa norma, uzus tabiatdan kelib chiquvchi cheklashdir.



O'zbek tili morfemalariga xos xususiyatlar ularning shakllangan tabiatdan kelib chiqqanligidan, ularning birikishi ham (ma'lum qoidalarga tayanishi) tilning asrlar osha shakllangan sistema hosil qiluvchi tabiati bilan izohlanadi. Nominativ birliklarning transformatsiyasi (so'z yasalishi), bu birliklarning formal- paradigmatic o'zgarishlari (shakl yasalishi) tildagi universal semantik cheklash tufayli amal qiladi. Jumladan, so'z turkumlari so'zlarning dastlabki yirik kategoriyasi bo'lganligidan, keng ko'lamli cheklash biror affiksning u yoki bu so'z turkumiga taalluqli asos bilan birika olish qobiliyatida ko'rinadi. Masalan, sinkretik xarakterdagi (ot va sifat yasovchi) – (u)vchi affiksi faqat fe'l asoslari bilan birika oladi: keluvchi, tuzuvchi, o'quvchi, aytuvchi... boshqa so'z turkumlariga xos asoslar birika olish semantik jihatdan cheklangandir.

So'z yasovchi qo'shimchalarning bir guruhi (masalan -li, -lik, -la) bir necha so'z turkumi :rasida integrativ (birlashtiruvchi) vazifada amal qilsa, ayrimlari esa bir turkum :rasida amal qiladi (birinchi jarayonni prof. A.G'.G'ulomov tashqi yasalishi, ikkinchi jarayoni ichki yasaliş deb nomlagan).

Keng ko'lamli semantik cheklash bilan birga, tor ko'lamdagi, maxsuslashgan semantik cheklash ham amal qiladiki, ma'lum bir affiks so'z turkumiga xos barcha asoslar bilan emas, balki sanoqli asos bilangina birika oladi. Masalan, jamlovchi son yasovchi – ov, -ovlon affikslari ikkidan yettigacha bo'lgan sonlargagina qo'shila oladi: ikkovi, ikkovlon,...Yettov, yettovlon, sakkizov, sakkizovlon... kabi birikuvlar g'ayritabiiydir.

Ba'zangina, o'nov, o'novlon yasalmasi o'xshashlik asosida shakllanishi mumkin. Bunday qo'shilish akad. A.N. Kononovning ko'rsatishicha, qadimgi turkiy tilda amal qiluvchi sanoqning yettilik sistemasi bilan bog'liq (2). Yoki -larcha morfemasi yirik miqdor bildiruvchi ayrim son asoslar bilan birikadi, xolos; o'nlar, yuzlar, minglar... (elliklar, ikki yuzlar, ikki minglar kabi yasalmalar semantik muvofiqlashmagan birikuvlardir).

So'z yasalishi jarayoni o'z mahsuli, natijasiga ko'ra ko'proq tilning diaxron aspektiga yo'nalgan bo'lsa, shakl yasalishi, ayniqsa, relyatsion shakllar til birliklari o'rtasidagi sinxron-sintagmatik aloqalarni ta'minlovchi vosita sifatida tilning muayyan bosqichdagi holati bilan bog'liqdir. Chunki yangi so'z, yangi lug'aviy birlik har kuni yaratilavermaydi. Prof. A.G'.G'ulomovning ta'biri bilan aytganda, yangi so'z turmushning talabi bilan tug'iladi.

Ijtimoiy hayot, inson ongidagi o'zgarishlar semantik siljishlarni mavjud materialni qayta muomalaga tushirish (ko'p ma'nolilikni yuzaga keltirish), transpozitsiya, morfem birliklar sintagmalarida yangi ma'noni ifodalash kabi yo'llar bilan mustahkamlashga ishlatiladi. Xususan, yangi sintagmatik birikuvlar o'xshashlik (analogiya) yo'li bilan mavjud modellar asosida yaratilaveradi: masalan, sayilgoh majlisgoh, qarorgoh kabi birikmalarga taqliddan o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi o'yingoh (stadion), tayyoragoh (aeroport), oliygoh, ta'limgoh, bilimgoh yasalmalari yuzaga keladiki, bular jamiyatdagi turli xil kayfiyat va intilishlarni aks ettiradi.

Pragmatik cheklash ham semantik cheklash :rasidagi qo'shimcha omildir. Masalan, kichraytirish -erkalash, hurmat, kinoya, kesatq kabi ma'nolarda



qo'llaniladigan kichiraytirish - erkalash shakllari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bular uslub bo'yog'i bilan bog'liq bo'lgan cheklovchi omillardir.

Morfemalar birikuvi qoidalarini cheklovchi semantik xususiyatlar, bir tomondan, nafaqat morfemika sathi, balki umuman til strukturasidagi universal cheklovchi omil sifatida ko'rinsa, ikkinchi tomondan, bu semantik cheklash ayrim tub so'zlarning leksik-semantik guruhlarida :rasidagi semantik-so'z yasash valentligiga taalluqlidir. Chunonchi, ikkinchi jihatga tegishli cheklashlar universal-mutlaq tavsifda bo'lmay, balki ehtimollilik xususiyatga ega bo'lgan hodisadir (3).

Tilda bir tushunchani ifodalash uchun bir necha sinonimik vositalarning mavjud bo'lishi tabiiy bir holdir. Shu bilan birga, yangi ma'no turli vositalar, jumladan, tub so'z orqali, morfemalar birikuvi orqali bir ramzni turli pozitsiyaga o'tkazish (transpozitsiya) orqali ifodalanishi mumkin. Til sathidagi semantik-funksional differentsiatsiyalashuv ana shu vositalarning qo'llanish ko'lamini ham belgilab beradi. Masalan: til taraqqiyotidagi tebranishlar shofer-haydovchi, stanok-dastgoh, kosmonavt-fazogir, mashshoq-musiqachi kabi paradigmatic qatorlardan biror komponentga imtiyoz berib tursa-da, neytral nutq talabi ko'proq ikki qismli birlikka emas, balki tup so'zga imtiyoz beradi (4). Demak, ayrim o'rinlarda yasalmadan qutilishi mumkin bo'lgan ma'noni ifodalovchi tub so'zning mavjudligi xuddi shu ma'nodagi yasama so'zga, uning faollashuviga to'sqinlik qiladi.

Demak, til birliklari birikuvi :rasida amal qiladigan semantik cheklashlar umumiy universal xususiyatga ega. Ana shu cheklashlarning tabiatni to'g'ri idrok etmaslik morfemalar sintagmatikasida sun'iy birliklarini yuzaga keltirish mumkin. Xususan, XX asrning 70-yillaridan boshlab o'zlashmalari :rasida kuzatiladigan va ayrim o'zbekcha asoslarga ham qo'shila oladigan arabcha - iy, -viy qo'shimchasini o'zlashmalar sohasida omonimiyani cheklash (fizik-ot-fizik -sifat) maqsadida ot+ot tipidagi (atom bomba, quyosh soati) hamda rus tilidagi sifat + ot (световое излучение) ko'rinishdagi birikmalarning birinchi qismiga - iy, -viy qo'shimchasi orttirila boshlandi: atomiy bomba, quyoshiy soat, mashinaviy texnika, analitikaviy perspektiva ...

Jurnalist R.Abdurahmonov "Fizikadan ruscha-o'zbekcha lug'at" (Toshkent, 1978) dan joy olgan yorug'liqiy (ёруғлик +ий световой), anodoviy kabi birikmalar o'ziga xos ixtiro bo'lganligini ta'kidlab, tunuka tom, yog'och qoshiq, temir karavot birikmalardagi birinchi qismini tunukaviy tom, yog'ochiy qoshiq, temiraviy karavot deb yozsakmikan deb hajv ostiga oladi (6).

Prof. A.F.G'ulomov: "Tuxum sho'rva, sut choy kabi qo'shilmalarda ot (tuxum, sut) o'zi uchun tipik bo'lgan sintaktik funksiyada emas, balki sifat bajaradigan funksiyaga qo'llangan, lekin uning sifat kabi o'qilishi boshqacha so'z bilan birikishda va shu qo'shilishdagi ma'nosi asosida kelib chiqadi, bu qoshilmadan ajralgach, yana otligicha qoladi. U tuxumli, sutli kabi formalarda shakllangach, endi sifat sanaladi, "-deb ot+ot tipidagi izofali birikma bilan sifat+ot tipidagi birikmalarning munosabati haqida fikr yuritadi



Ma'lumki atamalar hosil qilishda turkiy izofa qadimdan faol qo'llanib kelinadi: bug'doy un, arpa non, qo'larra, oshpichoq, toshko'mir, qo'qonarava, elektr quvvati: ... shu sababli, atom bomba, quyosh soati, issiqlik sig'imi kabi atamalar -iy, -viy qo'shimchalari orttirishiga muhtoj emas.

Umuman olganda, morfemalar sintagmatikasi ham "dastlab yondosh elementlarning ma'nosi, keyin esa ularning formasi" tamoyiliga amal qiladi. Valentligi ma'no jihatdan muvofiqlashgan morfemalarning formal jihatdan ham moslashuvi talab etiladi. Morfemalar birikuvidagi formal cheklashlar morfonologik qoidalar asosida bartaraf etiladi.

So'z yasalishi nuqtai nazaridan cheklash u yoki bu yasama asosdan yana yangi so'z yasash imkoniyati bor-yo'qligi bilan bog'langan cheklashdir: ikkilamchi, uchlamchi affikatsiya tufayli yasama so'z yangi bosqichdagi yasama so'z uchun asos bo'ladi: suva+q; suvoq+chi, suvoqchi+lik, bu jarayonida avval tashqi yasovchi, keyin ichki yasovchi qo'shiladi taroq+ chi, taroq chi+lik taroqchilik.

So'z yasalishi tizmasini yakunlovchi birlik - lik qo'shimchasidan so'ng yangi so'z yasovchi qo'shila olmaydi, shu affiks bilan birikkan asoslarning so'z yasalishi imkoniyati barham topadi.

Sintagmatikadagi leksik cheklash nafaqat morfemika balki leksikologiya, sintaksis sathlariga ham tegishli hodisa bo'lib, bir chiziqli yo'nalishda bir so'z leksik ma'nosi-sememalarning reallashuvi jarayonida sintagmalarining hosil bo'lishini nazarda tutiladi

Morfem sintagmatikaga ham boshqa til sathlarida bo'lgani kabi morfemika birliklari ham mazmun ham ifoda sathlarining murakkab munosabatidan tarkib topadi Morfemika sathida ham irratsionallik (F.de Sossyur) yoki asimmetriya (S.O. Karsevskiy) ning turli ko'rinishlari mavjud: "Agar til mexanizmi to'la ratsional bo'lganda edi, uni narsa o'zida kabi o'rganish mumkin bo'lar edi". (5,165).

Albatta, tilining mohiyati har qanday qoida andaza va qoida nisbatan boy va ko'p qirralidir. Har qanday qoida va umumlashmalar eng tipik bog'lanishlarni aks ettiradi, ana shunday bog'lanishlar til sistemasida amal qiluvchi o'z asosiga ega bo'lgan turli qonuniyatlar bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Земская Е.А. Словообразование. Современный русский язык. (под ред. В.А.Белошапковой).– М., 1989.
2. Кононов А.Н. Показатели собирательности - множественности в тюркских языках. – Л., 1969.
3. Милославский И.Г. Об ограничении сочетаемости русских морфем // "Вестник МГУ", серия 9, филология 2. – М., 1979.
4. Бердиалиев А. Адабий нутқдаги ўзгаришлар ва унинг тил парадигматик системасига таъсири. –Тошкент, 1990.
5. Соссюр Ф. де Курс общей лингвистики. Труды по языкознанию. – М., 1977.
6. Абдурахмонов Р. Ёруғликий. – "Муштум" журналы. –Т., 1979, 17-сон.



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнұра Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

